

УДК-633/635.1/8

Оналик пиёзбощдан пиёз етиштириш технологияси (Нўш пиёз).

**Репчатый лук технология выращивания лука репчатого с кочана
(Нелуковичный).**

Onion Technology of growing onion from a head of cabbage (Non-bulbous).

Shaymanov Kamol Kuchkinovich katta o'qituvchi, Assistentlar **Xazratqulova
Mahbuba Jo'raevna, Xolmamatov Jamshid Jumaqulovich**
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.

Аннотация: 2017 yildan boshlab “Jamshidbek elita urug‘chi” fermer xo‘jaligida 6 yil davomida tajribalar o‘tkazildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, piyozdan Surxondaryo viloyatidagidan ham ertaroq hosil olingan. Urug'lik ekish bilan solishtirganda afzalligi shundaki, ekinlar 10-12 gektardan olinadi, ekish zichligi to'liq hosil olish imkonini beradi, begona o'tlar, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish uchun hech qanday xarajatlar yo'q. Bundan tashqari, aprel oyi boshida hosil olinayotganligi sababli, ikkilamchi ekinlar uchun bo'shatilgan maydonlarni olish imkoniyati mavjud bo'lib, iqtisodiy xarajatlarni oshiradi, bu esa tannarxning 35-40 foizini tejash imkonini beradi.

Аннотация: С 2017 года в течение 6 лет в хозяйстве «Джамшидбек Сеятел Элита» проводятся опыты. По результатам опыта лук убирали раньше, чем в Сурхандаринской области. По сравнению с посевом семян преимущество в том, что урожай получают с 10-12 га, плотность посадки позволяет получить полноценный урожай, отсутствуют затраты на борьбу с сорняками, вредителями и болезнями. Кроме того, так как уборка производится в начале апреля, есть возможность отвода освободившихся площадей под вторичные культуры, что увеличивает экономическую стоимость, что позволяет сэкономить 35-40% стоимости.

Abstract: Experiments were conducted for 6 years on the farm Jamshidbek seeding elite” since 2017 year. According to the results of the experiments it was obtained earlier harvest of onion than even in Surkhandarya region. Advantage compared with seed sowing is that crops receive with 10-12 acres , planting density allows you to get the full yield, there are no cost to combat weeds, pests and diseases. In addition , due to the fact that the harvest is obtained in early April , there is the opportunity for receiving exempt area for secondary crops , increasing economic cost , that allows you to save 35-40% of the cost.

Kalit so‘zlar: nush piyoz, ertagi piyoz, urug‘bosh, fenologik, biometrik.

Ключевые слова: нелуковичный лук, сказочный лук, семенная головка, фенологический, биометрический.

Key words: non-bulbous onion, fairy onion, seed head, phenological, biometric.

Mamlakatimizda qadimdan piyoz o‘simliklari o‘stirib kelinadi. Ayniqsa piyoz o‘simliklari urug‘idan va no‘sh piyozidan yetishtirilib kelingan. Barchamizga piyoz ekinni ahamiyati ma’lum. U uch muddatda ekib yetishtirilib, aholimizni piyoz maxsulotlariga bo‘lgan extiyoji ta’minlanib kelinadi.

Ekish muddatlari ichida erta bahorda ekib yetishtiriladigan piyoz hosili boshqa muddatlarda yetishtiriladigan hosilga nisbatan o‘z qiymati jihatidan ancha ustunlik qiladi. Shu bilan birga uni o‘sov davrida, qo‘llaniladigan texnologik jarayonlar ham o‘zgacha bo‘ladi. Mutaxassislar erta muddatda yetishtiriladigan piyoz agrotexnikasini mukammal bilish va ularni Respublikamiz fermer xo‘jaliklariga targ‘ib qilishdek ma’suliyatni o‘z zimmamizga olamiz.

So‘ngi yillarda mutaxassis olimlar va mirishkor dexqonlarimiz tomonidan tinimsiz izlanishlar natijasida piyoz yetishtirishning ko‘chat usuli va no‘sh piyoz ekish usullari takomillashtirildi. Bu ikki usul urug‘ini sepib yetishtirishga qaraganda afvzalligi; shundan iboratki 10-12 sotix maydonda piyozboshini yetishtirib olish , ko‘chat qalinligini to‘liq xosil qilish imkonini beradi, begona o‘tlarga qarshi mablag‘ sarflanmaydi, begona o‘tlar bilan zararlanish darajasi kamayadi, kasallik va zararkunandalarga qarshi sarf xarajat qilinmaydi,

kasallik va zarakunandalarga kam chalinadi, rivojlanayotgan o'simliklar baquvvat va jadal rivojlanadi,. Shu bilan birgalikda aprel oyining boshida pishib yetiladi asosiy yer maydoni bo'shab, takroriy boshqa ekin ekish imkonini beradi xosildorligi yuqori va sifatli bo'ladi. Iqtisodiy samaradorlik oshadi 35-40% sarf xarajat tejab qolinadi.

Bunday tajribani 2017 yildan beri "Jamshidbek elita urug'chi" fermer xo'jaligida 6 yil davomida olib borildi va tajribalar natijasida Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ertaroq piyozni yetishtirishga erishildi. O'z navbatida no'shdan ertagi piyoz yetishtirishni xam o'ziga yarasha muammolari mavjud. Ya'ni no'shdan piyoz yetishtirish usulini jiddiy kamchiliklaridan biri piyozboshlar yetilishi davrida urug'bosh chiqarishidir bu dexqonlarimizga muammo tug'dirib kelar edi. Piyoz urug'bosh chiqarish natijasida maxsulot sifati buzilib, piyoz boshi o'rtasida o'zak xosil bo'lar edi. Shu muammoni yechish xamda Surxondaryo vohasi sharoitida juda erta ya'ni aprel oyida piyoz yetishtirishni yo'lga qo'yish maqsadida Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti olimlari va "Jamshidbek elita urug'chi" fermer xo'jaligi raxbari Mustafaqul Javliev fermer bilan birgalikda bir qancha piyoz navlarini fenologik va biometrik kuzatuv sinovlaridan o'tkazilib yakka tanlash usuli bilan yangi juda xam erta, serxosil eng asosiysi 90-95% o'zaklashmaydigan "Tenaza" piyoz navini ajratib olishga erishdik.

No'shdan piyoz yetishtirish agrotexnikasi: "Tenaza" piyoz navi urug'i mart oyining birinchi dekadasida kichikroq 1 sotix maydonga 1 kg. Urug' sepiladi va 1-1,5 sm qalinlikda chirigan go'ng yoki apilka aralashirilgan unumdor tuproq sepiladi. So'ng 3 litr suvga stomp gerbitsididan tayyorlanib sepiladi va qorayguncha miriqtirib sug'oriladi. Xech qanday o'g'it solinmaydi. Bu usulda 1gektar yer uchun 7-10 kg. Piyoz urug' sepiladi. Piyoz 100% unib chiqandan so'ng 1 marta begona o'tlardan tozalanadi. Biz adabiyotlardan va olimlarimizni ma'lumotlaridan yaxshi bilamizki piyoz yetishtirishda olingan daromadni 55 % begona o'tlardan tozalash uchun sarf bo'lishligini. Shundan so'ng 1 marta 300 kg. AFU-aralashma o'g'it bilan oziqlantiriladi. Piyozboshlar danakdek va kichkina yong'oqdek shaklga yetganda sug'orish ishlari to'xtatiladi.

Piyozboshlar suvsizlikdan quriy boshlaydi yer ustki qismi batamom quriydi may oyining oxiri iyul oyining boshlarida yig'ib olinadi . Yig'ib olingan no'sh piyozlar maxsus to'r xaltachalarga, qopchalarga 10-12 gacha solinib ola ko'lanka sharoitida quritiladi va avgust oyi oxirigacha salqin joyda saqlanadi. Piyozboshlar bu davrda 75-90 kun yaravizatsiya davrini o'taydi. Sentabr oyining birinchi o'n kunligida 70 sm li egatlar pushtasiga 4 qator qilib, o'simliklar orasini 6 sm xolatda ekiladi.

Bunda xar bir gektarga 950 ming dona o'simlik joylashadi. Ekish oldidan yerni tayyorlash; gektariga 3 litrdan stomp gerbitsidi sepiladi, o'g'itlash kuzgi piyoz ekish ishlari kabi amalga oshiriladi. Ya'ni 300 kg. gektariga Ammafos, kaliy 100kg. beriladi va ikki marotaba sug'oriladi. O'simlik xolatiga qarab 1 marta AFU mineral o'g'itidan gektariga 400 kg. dan sepiladi.

Shu bilan piyoz o'simliklari agrotexnikasi kelgusi yil baxoridan boshlanadi. Obixavoning issiq yoki sovuq kelishiga qarab fevral oyining oxiri yoki mart oyining boshlarida 250-300 kg. gektariga azotli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi va 2-3 marta sug'oriladi. Boshqa agrotexnik tadbirlar qo'llanilmaydi . Aprel oyining birinchi dekadasidan so'ng piyozboshlar texnik pishib yetiladi.

Bu davrda xali asosiy sabzavot ekinlari pishib yetilmagan bo'ladi. Bizning usulda axolini servitamin sabzavotga ayniqsa barra piyozga bo'lgan talabini juda erta qondirish imkonini beradi.

Bunday usulda yetishtirilgan piyozlarimiz natijasida Mamlakatimiz va viloyatimiz axolisini ertaki barra piyoz bilan ta'minlash , oziq ovqat programmasini bajarilishiga xamda xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishiga xissa qo'shish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Tenaza piyoz navini yetishtirishni xoxlovchi fermerlarimiz yoki tomorqa egalariga. Bu nav urug'larini Surxondaryo viloyati Jarqurg'on tumanidagi sabzavotchilikka ixtisoslashgan "Jamshidbek elita urug'chi" fermer xo'jaligidan olishlariga amaliy yordam beramiz.

TAJRIBADAN LAVXALAR





Адабиётлар рўйхати.

1. Алексеева М.В. Культурные луки. – М.: Колос, 1960
2. Balashev N.N Zeman G.O «Sabzavotchilik» T «O'kiuvchi» 1977
3. Zuev V.N Abdullaev A.G «Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi » T. «O'zbekiston» 1997.
4. T.Ostonaqulov «Sabzavot ekinlari biologiyasi va ularni o'stirish texnologiyasi» T. «Mexnat» 1997 y
5. T.Ostonaqulov ,V.I.Zuev, O.Q.Qodirxo'jaev «Sabzavotchilik» T «O'kiuvchi» 2009 y.
6. Bo'riev X., Zuev V., Qodirxo'jaev O., Muxamedov M. Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyasi. – T.: UzME, 2002.